

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.08/2025.27.12.V.11.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

ISLOMOVA OZODA PAYZULLAYEVNA

**QO‘ZILAR KOLIBAKTERIOZIDA PROBIOTIKLARNI ORGANIZM
IMMUN TIZIMIGA TA‘SIRI**

**16.00.03-Veterinariya mikrobiologiyasi, virusologiyasi, epizootologiyasi, mikologiyasi,
mikotoksikologiyasi va immunologiyasi**

**VETERINARIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand – 2026

UO‘K: 619.636.5: 616.9:616.084.

**Veterinariya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
ветеринарным наукам**

Content of the abstract of doctoral dissertation (PhD) on veterinary sciences

Islomova Ozoda Payzullayevna

Qo‘zilar kolibakteriozida probiotiklarni organizm immun tizimiga ta’siri.....3

Исломова Озода Пайзуллаевна

Влияние пробиотиков на иммунную систему ягнят при колибактериозе.....23

Islomova Ozoda Payzullayevna

The Effect of Probiotics on the Immune System of Lambs with Colibacillosis....45

Эълон қилинган ишлар рўйхати

Список опубликованных работ

List of published works.....49

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.08/2025.27.12.V.11.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

ISLOMOVA OZODA PAYZULLAYEVNA

**QO‘ZILAR KOLIBAKTERIOZIDA PROBIOTIKLARNI ORGANIZM
IMMUN TIZIMIGA TA’SIRI**

**16.00.03-Veterinariya mikrobiologiyasi, virusologiyasi, epizootologiyasi, mikologiyasi,
mikotoksikologiyasi va immunologiyasi**

**VETERINARIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.4.PhD/V191 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.ssuv.uz) va «ZiyoNet» axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Yunusov Xudaynazar Beknazarovich
biologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Salimov Ilhom Xayitovich
Veterinariya fanlari doktori, professor

Mengliyev G'ayrat Akramovich
veterinariya fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

**Samarqand davlat tibbiyot universiteti huzuridagi
L.M.Isaev nomidagi mikrobiologiya, virusologiya,
yuqumli va parazitlar kasalliklar ilmiy-tadqiqot instituti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.08/2025.27.12.V.11.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil «18» mart soat «13:00» dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140103, Samarqand shahri, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 77 uy. Tel./faks: (99855) 707-76-86; e-mail: ssuv@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (14357 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140103, Samarqand shahri, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 77 uy. Tel./faks: (99855) 707-76-86).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 6-mart kuni tarqatildi.
(2026-yil 6-martdagi № 09 - raqamli reestr bayonnomasi)



N.B.Dilmurodov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, vet.f.d., professor

K.X.Urokov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, vet.f.f.d. (PhD)

Q.N.Norboyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, vet.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda qo‘ychilik qishloq xo‘jaligining muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, aholini go‘sht va go‘sht mahsulotlari, sanoatni sifatli jun va teri hom ashyosi bilan ta‘minlashda katta ahamiyat kasb etadi. Bu borada yangi tug‘ilgan qo‘zilar salomatligi butun ishlab chiqarish zanjirining barqarorligiga bevosita ta‘sir qiladi. Ularda uchraydigan ichak infeksiyon kasalliklaridan biri bo‘lgan kolibakterioz (*Escherichia coli*) organizmning tabiiy rezistentlikning pasayishi, o‘shishdan qolish hamda nobud bo‘lishiga olib kelib, qo‘ychilik xo‘jaliklariga katta iqtisodiy zarar keltiradi. “Qo‘zilarda kasallik qo‘zg‘atuvchining rivojlanishiga ona qo‘ylarning to‘la qiymatli oziqlantirilmasligi, og‘iz sutining sifatsizligi, sanitariya-gigiyena talablarning buzilishi, qo‘zilarni zich saqlanishi asosiy sabablardan bo‘lib ularning mahsuldorlik va o‘shish ko‘rsatkichlariga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi”¹.

Dunyo veterinariya amaliyotida qo‘zilar kolibakterioziga qarshi antibiotiklardan foydalanish keng tarqalgan bo‘lsada, antimikrob rezistentlikning kuchayishi va mahsulotlarda qoldiq moddalarning saqlanishi kabi xatarlar muqobil, xavfsiz va barqaror yechimlarni talab etmoqda. Shunga ko‘ra ichak mikrobiotasini tiklash, kolonizatson rezistentlikni oshirish va immun tizimni rag‘batlantirishga ta‘sir etuvchi probiotiklardan foydalanish ilmiy-amaliy jihatdan istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi. Bugungi kunda qo‘zilarda ichak infeksiyalarining tarqalishi, rivojlanishi va diagnostikasini o‘rganish hamda qarshi kurashish usullarini ishlab chiqishga qaratilgan tadqiqotlar o‘tkazish zaruriyatini taqazo etmoqda.

O‘zbekistonda qo‘ychilik tarmog‘ini modernizatsiya qilish, mahsuldorligi va pushtdorligi yuqori qo‘ylarni urchitish, ulardan sog‘lom qo‘zi olish, infeksiyon kasalliklarga chidamliligini oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar olib borilmoqda. Biroq, aksariyat qo‘ychilik xo‘jaliklaridagi qo‘zilar orasida infeksiyon kasalliklar, jumladan kolibakterioz oqibatida o‘lim ko‘rsatkichlarining ortishi ularning tug‘ilgan paytda tabiiy immun himoyasining yetarli darajada rivojlanmaganligi bilan bog‘liq. Shu boisdan, qo‘zilarning kolibakterioziga qarshi immun tizim barqarorligini oshiruvchi biologik preparatlar qo‘llashga asoslangan qarshi kurashish usullarini ishlab chiqish veterinariya ilm-fani oldidagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-fevraldagi PQ-120-sonli «O‘zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo‘yicha 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan dastur to‘g‘risida»² gi qarori, 2022-yil 7-iyundagi PQ-273-sonli «2020-2030 strategiya vazifalarini samarali tashkil etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» qarori, 2022-yil 31-martdagi PQ-187-sonli «Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida» qarori, 2024 yil 16

¹ Hernández-Castellano L. E., Argüello A., Almeida A. M., Castro N., Bendixen E. Colostrum protein uptake in neonatal lambs examined by descriptive and quantitative liquid chromatography-tandem mass spectrometry // Journal of Dairy Science. – 2015. – Vol. 98, No. 1. – P. 135–147. – DOI: 10.3168/jds.2014-8143

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 8 февралдаги «Ўзбекистон Республикасида Чорвачилик соҳаси ва унинг тармоқларини ривожлантириш бўйича 2022-2026 йилларга мўлжалланган дастурни тасдиқлаш тўғрисида»ги ПҚ-120 сонли қарори.

fevraldagi PF-36-sonli «Oziq-ovqat xavfsizligi va sogʻlom ovqatlanish boʻyicha ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish toʻgʻrisida» Farmoni shuningdek 2025 yil 17 iyuldagi PQ-225-sonli «Moʻgʻulistonga oliy darajadagi tashrif davomida qishloq xoʻjaligi va oziq-ovqat sohalarida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida» qarorlarida qoʻyilgan vazifalarni samarali amalga oshirishda dissertatsiyada keltirilgan tadqiqot natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalarini rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishning V. «Qishloq xoʻjaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof muhit muhofazasi» ustuvor yoʻnalishlari doirasida bajarilgan.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Qoʻzilarida kolibakteriozning epizootologiyasi, klinik kechishi, patogenezini hamda kasallikni oldini olish va davolash masalalari boʻyicha bir qator xorijlik tadqiqotchilar R.F.Sayfutdinov, A.S.Kompanchenko, S.N.Latyshev, A.N.Kononov, E.Y.Baranov, A.P.Studensov, A.I.Stepanov, I.V.Stepanova, R.Ya.Juravlyov, V.I.Logvinov, G.N.Ibragimov, L.E.Lebedeva kabi mualliflar tomonidan atroflicha oʻrganilgan. Mazkur yoʻnalishda Oʻzbekiston olimlaridan A.K.Sitdikov, И.Д.Бурлуцкий, G.S.Sarimsakov, F.I.Ibodullaev, A.Abdusattarov, K.K.Tajibaev, B.A.Elmurodov kabi mualliflarning olib borgan tadqiqotlari kolibakteriozning diagnostikasi, davolash va profilaktikasiga doir masalalarni qamrab olgan. Shunga qaramay, yangi tugʻilgan qoʻzilar modelda probiotik qoʻllanilgan organizmalarda immunologik koʻrsatkichlarni kompleks baholashga asoslangan ilmiy-tadqiqot ishlari yetarli darajada olib borilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Oʻzbekistonda veterinariya, biotexnologiya va chorvachilik sohasini rivojlantirish uchun ilmiy kadrlarni intensiv tayyorlash ilmiy biznes inkubatori” MEGA loyihasi va “Veterinariya boʻyicha ilmiy amaliy yordam koʻrsatish” (2021-2023 yy. №23/07) shartnomalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Respublikamizning ayrim hududlaridagi kolibakteriozga chalingan qoʻzilarida probiotiklarning immun tizimga taʼsirini klinik, gematologik, biokimyoviy va immunologik koʻrsatkichlarini oʻrganish hamda veterinariya amaliyotida qoʻllash boʻyicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning vazifalari: Oʻzbekistonning turli tabiiy-iqlim sharoitiga ega Samarqand, Jizzax, Navoiy va Surxondaryo viloyatlari xoʻjaliklarida uchraydigan qoʻzilarning kolibakterioz bilan kasallanish darajasi, yosh va mavsumiy dinamikasi hamda kasallikka taʼsir etuvchi gigiyenik va immun omillarni oʻrganish;

Qoʻzilarida kolibakteriozning klinik va patologoanatomik belgilarini oʻrganish hamda yosh guruhlarda (1–15 va 16–30 kunlik qoʻzilar) kasallik dinamikasini tahlil qilish;

Kolibakteriozga gumon qilingan patologik materiallardan *Escherichia coli* qoʻzgʻatuvchisini ajratib olish, ularning morfologik va biokimyoviy xususiyatlarini

o'rganish hamda differensial oziqa muhitlarda o'sish xususiyatlari asosida tashxis qo'yish usullarini takomillashtirish;

Qo'zilar kolibakteriozini oldini olish va davolashda qo'llanilgan probiotik (Maxlac/DW, Innoprovot) hamda antibiotik (Enrofloksatsin) vositalarining nomaxsus immun ko'rsatkichlarga (fagotsitar, bakteritsid, lizotsim va komplement tizimi) ta'sirini taqqoslab o'rganish;

Probiotik (Maxlac/DW, Innoprovot) va antibiotik (Enrofloksatsin) vositalarining qo'zilar kolibakteriozida maxsus immun ko'rsatkichlarga (IgM, IgG, IgA, CRP, fibrinogen) ta'sirini baholash va ularning immunomodulyator samaradorligini taqqoslab o'rganish;

Qo'zilar kolibakteriozini probiotik (Maxlac/DW, Innoprovot) va antibiotik (Enrofloksatsin) vositalari hamda ularning kombinatsiyasi bilan davolanganda qonning morfologik ko'rsatkichlariga (leykotsitlar soni, leykoformula elementlari) ta'sirini o'rganish, yallig'lanish jarayonini kamaytirish va immunogematologik tiklanish samaradorligini baholash.

Tadqiqotning ob'ekti. Samarqand, Jizzax, Navoiy va Surxondaryo viloyatlaridagi chorvachilik xo'jaliklarida parvarishlanayotgan yangi tug'ilgan qo'zilar (kolibakterioz bilan kasallangan va shartli sog'lom nazorat guruhlari), ularning qon va zardob, tezak, to'qima namunalari; kasallikdan ajratib olingan *E.coli* shtammlari, tajribada qo'llangan vositalar – Makslak (*Enterococcus faecium*) probiotigi, hamda taqqoslash uchun mahalliy ishlab chiqarilgan "Innoprovot" probiotigi (*Bacillus subtilis* asosida) hamda amaldagi antibiotik preparatlari; shuningdek xo'jaliklarning saqlash–oziqlantirish va veterinariya-sanitariya sharoitlari.

Tadqiqotning predmeti. Kolibakterioz kechishida probiotik qo'llanishiga javoban qo'zilarining immun holati (IgM, IgG, IgA, C-reaktiv oqsil, Fibrinogen qon zardobining lizotsim va bakteritsid faolligi, fagotsitar indeksi, Komplement tizimi faolligi), gematologik (leykotsitlar va leykotsitar formulasi), klinik ko'rsatkichlari (diareya, suvsizlanish darajasi, tana harorati, tuzalish muddati, yashab qolish, o'sish sur'ati), *E.coli* ning bakteriologik identifikatsiyasi, patologoanatomik va epizootologik ko'rsatkichlar (mavsumiylik, yoshga bog'liqlik, tarqalish va o'lim darajasi).

Tadqiqot usullari. Klinik, patologoanatomik, epizootologik, bakteriologik, gematologik, immunologik, biokimyoviy va statistik usulblardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Kolibakteriozning yuqori darajada uchrashi 1-15 kunlik qo'zilar bahor mavsumiga to'g'ri kelib, asosan gipersekretor diareya (79,7 %), o'tkir degidratatsiya (58,7 %) hamda 15,5 % holatlarda o'lim bilan nomoyon bo'lishi aniqlangan;

qo'zilar kolibakterioz gemorragik enterit, jigar to'qimasida distrofiya va giperemiya, yurak va taloqda degenerativ o'zgarishlar, limfa tugunlarida shish kabi patologoanatomik o'zgarishlar bilan kechishi ilmiy asoslangan;

ilk marotaba qo'zilar kolibakteriozida antibiotik, xorijiy va mahalliy probiotiklarning nomaxsus immun mexanizmlarini faollashtirishdagi roli kompleks baholanib, "Maxlac" probiotigi fagotsitar indeksni 8,5%, bakteritsid faolligi

15,5%, lizotsim faolligini 9,5 foizga oshirib, immun tizimni rag'batlantiruvchi eng samarali vosita ekanligi ilmiy asoslangan;

qo'zilar kolibakteriozini davolashda enrofloksatsin 10% va Maxlac/DW probiotigini birgalikda qo'llanilishi leykotsitlar sonini, limfotsitlar va neyetrofillar ulushini me'yorlar darajasida yaxshilovchi ta'sirga ega ekanligi ilmiy jihatdan isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida probiotiklarning, ayniqsa ko'p komponentli Maxlac preparatining qo'zilar kolibakterioz kechishida immun va qon morfologik ko'rsatkichlarini yaxshilashi, yallig'lanish reaksiyasini kamaytirib, immun tizimni tezroq tiklashga yordam berishi, yangi tug'ilgan qo'zilar kolibakteriozning oldini olishda hayotining dastlabki kunlaridan boshlab 1 litr suv yoki sutga 0,03 g Maxlac preparatini qo'shib berish orqali organizmning nomaxsus immun himoya xususiyatlarini mustahkamlash bo'yicha amaliy yo'riqnoma ishlab chiqildi.

Probiotik qo'llanganda diareya davomiyligi qisqardi, tuzalish tezlashdi, yashovchanligi oshdi; antibiotiklardan foydalanish kamaydi, veterinariya sanitariya jihatdan sifatli mahsulot olinishiga erishildi.

Qo'ychilik xo'jaliklari uchun "klinik monitoring" asosida qo'zining klinik belgilari yordamida tezda aniqlash va zaruriy laboratoriya tahlillar bilan tezkor tashxis uslublari ishlab chiqildi. Buning natijasida fermerlar tez va to'g'ri qaror qabul qilib, yo'qotishlarni kamaytirishga erishdi.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi tekshirishlarning zamonaviy uslub va vositalardan foydalangan holda o'tkazilganligi, epizootologik tadqiqotlar, davolash, oldini olish chora-tadbirlarini o'rganishda zamonaviy vosita va uslublardan foydalanilganligi, birlamchi ma'lumotlarga statistik ishlov berish va ilmiy tahlil qilish shuningdek, olingan nazariy natijalarning tajriba ma'lumotlari bilan to'g'ri kelishi, tadqiqotlar natijalarini dalolatnomalarga asoslanganligi, olingan amaliy natijalarni mutaxassislar tomonidan yuqori baholanganligi hamda ishlab chiqarishga joriy etilganligi bilan izohlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati qo'zilar kolibakteriozga tashxis qo'yish uslubi klinik monitoring *E.colini* bakteriologik ajratish va identifikatsiya qilish, shuningdek immun-gematobiokimyoviy indikatorlar (IgM, IgG, IgA, lizotsim/bakteritsid faollik, fagotsitoz indeksi va b.)ni kompleks tashxis qo'yish uslubi ilmiy asoslanganligi, Samarqand, Jizzax, Navoiy, Surxondaryoda ajratilgan mahalliy *E.coli* shtammlariga qarshi Makslak probiotigining terapevtik va profilaktik samaradorligi klinik va immunologik ko'rsatkichlar asosida ilmiy asosda aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati qo'zilar kolibakteriozni xo'jalik sharoitida davolash va oldini olish uchun Makslak probiotigini suv/sutga qo'shib berish bo'yicha doza-berish tartibi-davomiylilik uslubi ishlab chiqilib, amaliy sinovlarda diareya davomiyligi qisqarishi, tuzalish tezlashishi, yashovchanligi va

o'sish ko'rsatkichlari yaxshilanishi ilmiy asoslanganligi va amaliy tavsiyalar berilganligi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qo'zilar kolibakteriozida probiotiklarni organizm immun tizimiga ta'sirini o'rganish asosida:

Qo'zilarni parvarishlash va ularda uchraydigan enterobakteriozlarga qarshi kurash» bo'yicha tavsiyanoma ishlab chiqilgan va Samarqand viloyati Nurobod tumani "Oq uchar tulpor" fermer xo'jaligi, Navoiy viloyati, Qiziltepa tumani "Yangi asr" fermer xo'jaligiga joriy etilgan (Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2025-yil 17-noyabrdagi 02/23-849-son ma'lumotnomasi). Ushbu tavsiyalarni qo'ychilik xo'jaliklariga joriy etish orqali qo'zilarni sog'lom parvarishlash va kolibakteriozni kamaytirishga erishilgan.

Respublikamizning qo'ychilik fermer xo'jaliklarida kolibakteriozni klinik, patologoanatomik tekshirish va qo'zg'atuvchini laboratoriya sharoitida identifikatsiyalash orqali boshqa enterobakteriyalardan differentsiallash usullari takomillashtirilgan va amaliyotga joriy etilgan. (Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2025 yil 17-noyabrdagi 02/23-849 ma'lumotnomasi). Natijada qo'ylar kolibakteriozini identifikatsiyalash orqali boshqa shartli patogen ichak infeksiyalaridan tezkor va ishonchli qiyosiy tashxislashga erishilgan.

Qo'zilar kolibakterioziga qarshi kurashishda dastlabki 3–4 kun davomida enrofloksatsin 10% (5 mg/kg) qo'llanishi va so'ngra 14 kun davomida Maxlac/DW probiotigini (0,03 g/L) berish usuli joriy etilgan (Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2025-yil 17-noyabrdagi 02/23-849-son ma'lumotnomasi). Natijada, qo'zilarni kolibakterioziga qarshi immunitetning maxsus va nomaxsus himoya mehanizmlarini mustahkamlanishiga hamda kasallanishni kamaytirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur ilmiy tadqiqot natijalari 2022-2025 yillar davomida Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining "Mega loyiha" doirasida bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlariga bag'ishlangan konferensiyalarda yoritilgan hamda aprobatsiya dalolatnomalari bilan tasdiqlangan. Ilmiy-tadqiqot ishi natijalari jami 4 ta, 2 ta xalqaro, 2 ta Respublika ilmiy amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 9 ta ilmiy ish chop etilgan, shundan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalari natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan 3 ta xorijiy, 2 ta Respublika ilmiy jurnallarida, shuningdek, jami 4 ta maqola 2 ta xalqaro, 2 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlari to'plamlarida nashr etilgan. Olingan natijalar asosida 1 ta tavsiyanoma chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan. Dissertatsiyaning hajmi 113 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning «Kirish» qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati, mavzuning Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, predmetlari tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini o‘quv jarayoniga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «Qo‘zilar kolibakteriozining epizootologiyasi, klinikasi, patogenezini, immun tizimning roli va organizmning gomeostazi hamda probiotiklarning immunologik ko‘rsatkichlarga ta‘sir mexanizmlariga oid ilmiy adabiyotlar tahlili» deb nomlangan birinchi bobi besh qismga bo‘lingan bo‘lib, ushbu bobning «Qo‘zilar kolibakteriozining epizootologiyasi» deb nomlangan birinchi qismida kolibakteriozning qo‘zg‘atuvchisi hamda uning xususiyatlari to‘g‘risidagi umumiy ma‘lumotlar uning xo‘jalikka keltiradigan iqtisodiy zarari, kasallikning tarqalishiga sabab bo‘luvchi omillar, jumladan qo‘zilarning yoshi, yil mavsumlari va immunitet darjasiga bog‘liqligi xorij davlatlari va O‘zbekistonda kasallikning tarqalishi hamda kechishiga oid adabiyot ma‘lumotlari keltirilgan. «Qo‘zilar kolibakteriozining klinik belgilari va patogenezini» deb nomlangan ikkinchi qismida kasallikning asosiy klinik belgilari, enterotoksigen *Escherichia coli* shtammlarining organizmga kirishi va ichak shilliq pardasi orqali ta‘sir etish mexanizmlari, o‘tkir diareya, suvsizlanish va intoksikatsiya rivojlanishi, shuningdek gematologik, biokimyoviy va patologoanatomik o‘zgarishlar haqidagi adabiyot ma‘lumotlari yoritilgan. **«Qo‘zilar kolibakteriozida immun tizimning roli va organizmning gomeostazi»** deb nomlangan uchinchi qismida qo‘zilar kolibakteriozida immun tizimning shakllanishi va organizm gomeostazining buzilish mexanizmlari adabiyot ma‘lumotlari asosida yoritilgan. Neonatal davrda ichak mikroflorasining tarkibi, passiv immunitet yetishmovchiligi va enteropatogen *E.coli*ning adgeziya hamda toksin hosil qilish xususiyatlari kasallik patogenezida hal qiluvchi omil ekanini shuningdek, suv-elektrolit va kislota-asos muvozanatining buzilishi, suvsizlanish va metabolik atsidoz rivojlanishi asosiy patofiziologik holatlar sifatida tavsiflangan. Ichak mikrobiosenezining immun gomeostazni saqlashdagi roli hamda probiotiklarning terapevtik ahamiyati ta‘kidlangan. Adabiyotlar sharhinig so‘nggi **«Qo‘zilar kolibakteriozida probiotiklarning immunologik ko‘rsatkichlarga ta‘sir mexanizmlari»** deb nomlangan to‘rtinchi qismida probiotiklarning ichak mikrobiotasini tiklash orqali kolonizatsion rezistentlikni kuchaytirishi, patogen *E.coli* shtammlarining epiteliyga yopishishini cheklashi, organik kislotalar va bakteriosinlar hisobiga ichak muhitining pH darajasini o‘zgartirib ularning ko‘payishini susaytirishi, shuningdek ichak shilliq qavati baryer funksiyasi va lokal immun javobni (IgA sekretsiyasi, fagotsitoz, lizotsim va zardob bakteritsid faolligi) faollashtirish orqali sistemali gumoral immunitet ko‘rsatkichlariga ijobiy ta‘sir ko‘rsatib, diareya davomiyligini

qisqartirish, suvsizlanish darajasini kamaytirish va qo‘zilarning tirik qolish hamda o‘shirish ko‘rsatkichlarini yaxshilashga oid adabiyot ma‘lumotlari keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Tadqiqotlar materiallari va usullari**» deb nomlangan ikkinchi bobi Tadqiqotlar joyi, ob‘ekti va usullari bo‘limida 2022–2024 yillarda Samarqand davlat veterinariya medisinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya kafedrasida vivariysi, shuningdek Samarqand, Jizzax, Navoiy va Surxondaryo viloyatlarining Hayvon kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat xavfsizligi davlat markazlari hamda Veterinariya ilmiy-tadqiqot institutining hududiy diagnostika va mikrobiologiya laboratoriyalarida olib borilgan ishlar bayon qilindi. Tajribalar “Mega loyiha” doirasida va dala sharoitida amalga oshirildi; amaliyotga joriy etish uchun Nurobod (“Oq uchar tulpor”), Termiz (“Novbod galdi”), Qumqo‘rg‘on (“Bozorov sururi”), Karmana–Kiziltepa (“Adizbobo”), Nurota (“Muftilbobo 101”) va Uchquduq (“G‘ayrat Jonibek”) fermalarida jami 22 854 bosh qo‘y–qo‘zilar qamrab olindi. Epizootologik ahvol qiyosiy-tarixiy va qiyosiy-geografik yondashuvlarda, fasllar kesimida (bahor–yoz–kuz–qish) hamda yosh guruhlari bo‘yicha (1–15 kun, 16 kun–1 oy) baholandi; xo‘jaliklarning sanitariya-gigiyena, boqish va boshqaruv texnologiyalari inobatga olindi. Birlamchi tashxis klinik ko‘rik asosida qo‘yildi; yakuniy tashxis patologoanatomik va laborator (bakteriologik/biokimyoviy) tekshiruvlar bilan tasdiqlandi.

Laborator bosqichda o‘lgan yoki majburiy so‘yilgan qo‘zilardan olingan suyak iligi, jigar, taloq, buyrak, o‘pka, yurak, ichak shilliq qavati hamda ichak tarkibi namunalarida *E.coli* ajratildi: namunalar MacConkey, Endo, SS va GPA muhitlariga ekildi, 37 °C (18–20 soat) da o‘stirildi; koloniya morfologiyasi, Gram bo‘yash va standart biokimyoviy testlar orqali identifikatsiya qilindi.

Profilaktika va davolash samaradorligini solishtirish maqsadida probiotik va antibiotik protokollari sinovdan o‘tkazildi. Probiotik vositalar sifatida ko‘p komponentli Maxlac/DW 3 g×25 (*Lactobacillus* spp., *Bifidobacterium* spp.) hamda mahalliy Innoprovvet (*Bacillus subtilis*) qo‘llandi; preparatlar sut/suvga belgilangan me‘yorlarda aralashtirib berildi. Antibiotik sifatida Enrofloksatsin 10 % og‘iz orqali tavsiya dozalarida qo‘llandi; ayrim guruhlarda kombinatsiyalashgan yondashuv (avval antibiotik, so‘ng probiotik) sinab ko‘rildi. Tajriba sxemasida profilaktik guruhlariga probiotiklar hayotning ilk kunlaridan berildi; davolash modelida barcha tajriba va nazorat guruhlari 14-kuni *E.coli* O78:K80 shtammi bilan og‘iz orqali 1×10^8 KHQB dozasi zararlantirildi. Klinik kuzatuvlarda tana harorati, diareya chastotasi va og‘irligi, suvsizlanish, tirik qolish ko‘rsatkichlari qayd etildi; patologoanatomik tekshiruvlarda ichak, limfa tugunlari, jigar va yurakdagi o‘zgarishlar baholandi.

Immunologik baholash tug‘ma (nonspefik) va maxsus (spetsifik) javoblarni qamrab oldi: fagotsitoz faolligi (FI), zardobning bakteritsid faolligi (BASK), lizotsim va komplement (CH_{50}) faolligi vaqt nuqtalarida o‘lchandi; gumoral javob uchun IgM/IgG/IgA, CRP va fibrinogen konsentrasiyalari ELISA va standart usullarda aniqlandi. Gematologik ko‘rsatkichlar (LEYK, leykoformula) veterinariya analizatorida baholandi. Barcha o‘lchovlar profilaktik yo‘nalishda 1–7–14–21–28-kunlarda, davolash yo‘nalishda 14–15–16–21–28-kunlarda o‘tkazildi.

Statistik tahlil uchun o'rtacha (M), xato (m), variatsiya koeffitsienti (Cv %), ishonchlilik mezonlari (Student t, P) hisoblandi va iqtisodiy samaradorlik aniqlandi.

Dissertatsiyaning «**Xususi tadqiqot natijalari**» deb nomlangan uchinchi bobining birinchi qismida «**Qo'zilar kolibakteriozining tarqalishini Samarqand, Jizzax, Navoiy va Surxondaryo viloyatlari kesmida mavsumiy va yoshga oid dinamikasi**»ni o'rganish bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Tadqiqotlar natijasida 2022–2024 yillar davomida Samarqand, Surxondaryo va Navoiy viloyatlarining ayrim qo'ychilik xo'jaliklarida qo'zilar kolibakteriozi uchrash darajasi muntazam epizootologik, klinik, pataologoanatomik va bakteriologik usullarda tekshirilib umumiy 22 854 bosh qo'zidan 148 boshida kasallik qayd etilib, o'rtacha 0,65 % ni tashkil etdi. Samarqand viloyati Nurobod tumanidagi “Oq uchar tulpor” fermer xo'jaligida 250 bosh qo'zidan 26 tasi (10,4 %) kolibakteriozga chalinganligi, Surxondaryo viloyati Termiz tumanidagi “Novbod geldi” fermer xo'jaligida 108 bosh qo'zidan 26 tasi (24,07 %), viloyatning Qumqurg'on tumanidagi “Bozorov sururi” xo'jaligida 22 000 bosh qo'zidan atigi 39 tasi (0,17 %) kasallikka chalinganligi hamda viloyat bo'yicha jami 22 108 bosh qo'zidan 65 tasi (0,29 %) kasallik qayd etilgan. Navoiy viloyatidagi Qiziltepa tumanidagi “Adizbobo” fermer xo'jaligida 303 bosh qo'zidan 18 tasi (5,94%) kasallikka chalingan Nurota tumani “Muftilbobo 101” xo'jaligida 70 boshdan 14 tasi (20,0 %), Uchquduq tumani “G'ayrat Jonibek” xo'jaligida esa 123 bosh qo'zidan 25 tasi (20,33 %) natijada Navoiy viloyati bo'yicha jami 496 bosh qo'zidan 57 tasi kasallikka chalingan bo'lib, umumiy 11,49 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, tadqiqotlar davomida ushbu xo'jaliklarda qo'zilar kolibakteriozining yoshga bog'liq dinamikasi o'rganildi. Bunda 1–15 kunlik hamda 15 kundan 1 oylikkacha bo'lgan qo'zilar kasallanish holatlari taqqoslab chiqildi. Tadqiqot yillari davomida yuqoridagi viloyatlardagi qo'ychilik xo'jaliklarida jami 148 boshi kolibakterioz bilan kasallangan, shundan qo'zilarining 101 boshini (68,24%) 1–15 kunlik, qolgan 47 boshini (31,76%) 15 kunlikdan 1 oylik qo'zilar tashkil etdi. Umuman olganda viloyatlararo farqlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, kasallikning eng yuqori ko'rsatkichi Samarqandda 57,69% Surxondaryoda 78,46%, Navoiyda 61,41 % 1–15 kunlik davrda kuzatilgan. Bunda Navoiy va Samarqand viloyatlardagi xo'jaliklardagi holat deyarli o'xshash bo'lib, Surxondaryo viloyatlardagi xo'jaliklarda jiddiy yondashuv asosida 15 kunlikkacha bo'lgan qo'zilarni kasallanib nobud bo'lishini oldi olinishi zarur. Kasallanish holatlarining keyingi 15 kunlikdan 30 kunlikkacha bo'lgan davrda Samarqandda 42,31 % Surxondaryoda 27,45%, Navoiyda 38,59 % qo'zilar qayd etilgan bo'lib bu davrga kelib qo'zilar orttirilgan immunitetining kuchayishi bilan bog'liq.

2022–2024 yillar davomida olib borilgan tadqiqotlarimiz natijalari shuni ko'rsatdiki, mazkur kasallikning uchrash chastotasi yilning turli fasllarida farq qiladi hamda Samarqand, Jizzax, Surxondaryo va Navoiy viloyatlari xo'jaliklarida sezilarli geografik tafovutlar mavjud. Kasallikning mavsumiyligini o'rganish natijasida olingan ma'lumotlar tahlili natijalariga ko'ra jami 768 bosh qo'y-qo'zilar yilning barcha fasllarida kolibakterioz bilan kasallanishi mumkinligini ko'rsatdi, ammo fasllar bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak qish faslida kasallik 82 bosh (10,68

%) qo‘zida aniqlangan bo‘lsa, bahorda bu ko‘rsatkich keskin oshib, 391 bosh (50,91 %) ni tashkil etdi. Yoz oylarida 224 bosh (29,17 %) qo‘zida, kuzda esa 71 bosh (9,24%) qo‘zida kasallik qayd etildi. Demak, kasallikning eng yuqori ko‘rsatkichlari bahor faslida kuzatilgan bo‘lib, ushbu davr qo‘zilarning tug‘ilish mavsumi bo‘lishi bilan bir qatorda immunologik himoya tizimining zaif bo‘lib qolishi bilan izohlanadi.


1-jadval

2022-2024 yillar davomida Samarqand, Surxondaryo va Navoiy viloyatlari qo‘ychilik xo‘jaliklaridagi kolibakteriozning uchrash darajasi

T/R	Viloyat nomi	Tuman va xo‘jalik nomi	Tekshirilgan jami qo‘zilar bosh soni	Kasallanish holati	Foiz ulushi
1	Samarqand	Nurobod, Oq uchar tulpor f/x	250	26	10,40
Jami			250	26	10,40
2	Surxondaryo	Termiz, “Novbod geldi” f/x	108	26	24,07
3	Surxondaryo	Qumqurg‘on tumani Bozorov sururi f/x	22 000	39	0,17
Jami			22 108	65	0,29
4	Navoiy	Qiziltepa “Adizbobo” f/x	303	18	5,94
5	Navoiy	Nurota tumani “Muftilbobo” 101" f/x	70	14	20,00
6	Navoiy	Uchquduk tumani “G‘ayrat Jonibek” f/x	123	25	20,33
Jami:			496	57	11,49
Umumiy:			22 854	148	0,65

Dissertatsiyaning «Qo‘zilar kolibakteriozini diagnostikasi» deb nomlangan bo‘limida qo‘zilar kolibakteriozini klinik belgilari, patologoanatomik va bakteriologik diagnostikasi o‘rganildi. Kolibakteriozni tashxislashda epizootologik ma‘lumotlar, klinik belgilar va laborator usullarning o‘zaro integratsiyasi asosiy mezon hisoblanadi. Kolibakteriozning klinik tashxisi qo‘ylarning turli yosh guruhlarida olib borilgan epizootologik kuzatishlar va klinik belgilarning majmuasi asosida baholandi. Tadqiqotlar Samarqand, Surxondaryo, va Navoiy viloyatlari xo‘jaliklarda jami 22854 bosh qo‘y-qo‘zilar 1–15 kunlik va 16 kun–1 oylik guruhlariga bo‘lingan holda 10–14 kun davomida olib borildi. Har bir guruhda klinik belgilar chastotasi, kasallikning og‘irlik darajasi va o‘lim ko‘rsatkichlari qayd etildi. Kolibakteriozning tipik belgilaridan bo‘lgan gipersekretor diareya 1–15 kunlik qo‘zilarda 89 bosh (88,1 %) qo‘zilarda qayd etilgan bo‘lib, bu yosh guruhida kasallikning asosiy va eng tez-tez uchraydigan belgisi hisoblanadi. 15 kunlikdan 30 kunlikkacha bo‘lgan yoshdagi qo‘zilarda diareya chastotasi nisbatan

past (61,7 %) bo‘lib, bu davrda ichak mikrobiotasining qisman barqarorlashuvi kuzatiladi. Umuman olganda diareya holatlari kolibakteriozda o‘rtacha 79,7% uchrashi aniqlandi. Shuningdek, kolibakterioz bilan kasallangan qo‘zilarda shilimshiq aralash ich ketishi yosh guruhlari bo‘yicha farqli tarzda qayd etildi. 1–15 kunlik qo‘zilarda bu belgi 22 bosh (21,7 %) da aniqlangan bo‘lsa, 16 kunlikdan 1 oylikkacha bo‘lgan qo‘zilarda 17 bosh (36,2 %) da kuzatildi. Umuman olganda shilimshiq aralash ich ketishi holatlari 26,3 % ni tashkil etdi.



1-rasm. Qo‘zilar kolibakteriozini yoshga oid dinamikasi

Tana haroratining oshishi ham kolibakteriozga xos klinik belgilar qatorida kuzatildi. 1–15 kunlik qo‘zilarda 54 bosh (53,4 %) da tana harorati 40–41 °C gacha ko‘tarilganligi qayd etildi. 16–30 kunlik qo‘zilarda esa bu ko‘rsatkich 19 bosh (40,4 %) ni tashkil etdi. Tana haroratining ko‘tarilishi kasallikning o‘tkir shaklida intoksikatsiya bilan kechishidan dalolat berib 49,3 % holatlarda aniqlandi.

Kasallangan qo‘zilarda suvsizlanish (degidratatsiya) darajasi 1–15 kunlik davrda 66 bosh (65,3 %) da, 16 kundan–30 kunlikgacha bo‘lgan 21 bosh (44,7 %) qo‘zilarda esa tez suvsizlanish holatlari kuzatilib, o‘rtacha 58,7 % qo‘zilarda qayd etildi. O‘lim darajasi 1–15 kunlik qo‘zilarda 17 bosh (16,8 %), 16 kun–30 kunlik qo‘zilarda esa 6 boshni (12,8 %) tashkil etildi. Umumiy o‘lgan qo‘zilar soni 23 boshni tashkil qilib, bu jami kasallanganlarning 15,5 foiziga teng bo‘ldi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, kolibakterioz bilan kasallangan qo‘zilarda patologoanatomik o‘zgarishlar asosan oshqozon-ichak tizimi, jigar va limfa tugunlarida yaqqol namoyon bo‘ldi. Yangi tug‘ilgan (1–15 kunlik) qo‘zilarda ichak shilliq qavatlarining o‘tkir yallig‘lanishi, gemorragik qon quyilishlar, shilliq va suyuq ichak massalarining to‘planishi kuzatildi. Ko‘pchilik holatlarda ingichka ichaklar kengaygan, ichida gaz to‘planishi va devorlarida shish va giperimiya qayd etildi. 16–30 kunlik qo‘zilarda esa ichakning ayrim qismlarida nekrotik o‘choqlar, shilliq qavat ustida fibrinli parda shakllanishi, ayrim hollarda esa eroziya va yarali

ko‘rinishda qayd etildi. Jigar to‘qimasida distrofik o‘zgarishlar, qon bilan to‘lgan, limfa tugunlarida esa kattalashib shishganligi qayd etildi.

Qo‘zilar kolibakteriozining yakuniy tashxisi klinik va epizootologik ma‘lumotlar bilan bir qatorda laboratoriya tekshiruvlari orqali tasdiqlanadi. Klinik belgilar (diareya, suvsizlanish, tana haroratining ko‘tarilishi, o‘lim hollari) faqat dastlabki tashxis qo‘yishda yordam beradi. Yakuniy tashxis esa faqat patogenni ajratib olish va uning xususiyatlarni o‘rganish orqali qo‘yildi. Tadqiqot o‘tkazilgan viloyatlarining qo‘ychilik xo‘jaliklaridan kolibakteriozga gumon qilinib, olib kelingan patologik namunalar bakteriologik tekshirishlar natijasida *Escherichia coli* qo‘zg‘atuvchilari mavjudligi aniqlandi.

Patologik materialning boshqa mikroorganizmlar bilan ifloslanganligi *E.colini* sof holda ajratish jarayonini murakkablashtiradi. Enterobakteriyalarni aniqlashda ularni bir-biridan sof holda ajratib olish maqsadida yuqori va past selektivlik differensial-diagnostik oziqa muhitlaridan foydalaniladi. Tadqiqotlarimizda *E.coli* va boshqa enterobakteriyalar o‘rtasidagi asosiy farqlovchi xususiyatlar Endo agari hamda MacConkey agarlarida yaqqol ko‘rindi. Endo selektiv muhitida qo‘zilardan ajratib olingan *E.coli* shtammlari odatda dumaloq, silliq qirrali, to‘q qizil rangli, metall jilosi bilan ajralib turuvchi 1,0–2,0 mm diametrli koloniyalar hosil qildi. Shuningdek, ba‘zi hollarda pushti-qizg‘ish rangdagi, atrofi biroz yoyilgan koloniyalar ham qayd etildi. MacConkey agarida esa ular to‘q qizg‘ish rangli, ba‘zan esa koloniya atrofi biroz cho‘kkan shaklda o‘sdi. Bu belgilar *E.colini* boshqa enterobakteriyalardan farqlashda muhim diagnostik ahamiyatga ega bo‘ldi.

Dissertatsiyaning «**Qo‘zilar kolibakteriozida immunologik ko‘rsatkichlarni o‘rganish**» deb nomlangan uchinchi bo‘limi «Qo‘zilar kolibakterioziga qarshi probiotik va antibiotiklardan foydalanishda nomaxsus immunologik ko‘rsatkichlar» qismida immun tizimning asosiy nospesifik himoya mexanizmlarini ifodalovchi to‘rtta ko‘rsatkich fagotsitar indeks, qon zardobining bakteritsid faolligi (BASK), lizotsim faolligi va komplement tizimi faolligini o‘rganishga bag‘ishlangan tajribalar natijalari berilgan. Tajribalarda “Maxlac/DW 3 g x 25” probiotigi 14 kun davomida qo‘llanildi. Har bir ko‘rsatkich sog‘lom nazorat, zararlanishi kutilayotgan nazorat va probiotik berilgan guruhlarda o‘rganilib ular o‘rtasida o‘zaro solishtirildi. Fagotsitoz indeksi dastlab barcha guruhlarda bir xil ko‘rsatkichni namoyon qildi (41–43%). 7-14 kunlikda ham sog‘lom va zararlanishi kutilayotgan nazorat guruhlarida sezilarli o‘zgarish qayd etilmadi. Probiotik berib borilgan guruhda esa bu ko‘rsatkich biroz oshib 44% ni tashkil etdi. Tajribaning 21–28-kunlariga kelib esa bu farqlar keskin farq qila boshladi xususan zararlangan nazorat guruhida fagotsitoz indeksi 33–35% gacha tushib ketdi, sog‘lom nazorat guruhida bu ko‘rsatkich barqaror darajada (44%) bo‘lib, makslak probiotigi berilgan guruhda esa 50% gacha ko‘tarildi. Dastlabki kunlarda barcha guruhlarda bakteritsid faollik bir xil darajada-54% atrofida bo‘ldi. Tajribaning 7–14-kunlarda sog‘lom va zararlanishi kutilayotgan nazorat guruhlarida ko‘rsatkichlar bir xil darajada (55–56%) saqlanib turdi, bu esa immun javobning barqaror holatini bildiradi. Probiotik berilgan guruhda esa 62% gacha ko‘tarilish kuzatilgan bo‘lib 21–28-kunlariga kelib zararlangan nazorat guruhida bakteritsid faollik keskin tushib ketdi (43–44%), probiotik berilayotgan tajriba

guruhda esa 64% gacha barqaror ko‘tarilish hamda sog‘lom nazorat 56 foizni saqlab qoldi.

2-jadval.

Qo‘zilar kolibakteriozini oldini olishda probiotikdan foydalanishning nomaxsus immun ko‘rsatkichlariga ta‘sirini o‘rganish natijalari (M±m; n-10)

Ko‘rsatkichlar	Kun	Guruhlar		
		Sog‘lom nazorat	Zararlanishi kutilayotgan nazorat	Profilaktik probiotik
Fagositar indeks FI (%)	1	41.2 ±1.5	41.0 ±1.6	41.5 ±1.4
	7	42.0 ±1.6	41.5 ±1.5	44.3 ±1.5
	14	43.5 ±1.5	42.8 ±1.4	47.8 ±1.6
	21	44.0 ±1.4	35.0 ±1.5	49.5 ±1.7
	28	44.2 ±1.3	34.5 ±1.6	50.1 ±1.5
Bakteritsid faollik BASK (%)	1	54.0 ±2.1	53.9 ±2.0	54.2 ±2.1
	7	55.3 ±2.0	54.0 ±2.1	59.5 ±2.2
	14	56.2 ±2.1	55.1 ±2.0	62.1 ±2.0
	21	56.5 ±1.9	44.0 ±1.8	63.4 ±1.9
	28	56.8 ±2.0	43.1 ±1.9	64.2 ±1.8
Lizotsim faolligi (%)	1	28.4 ±1.0	28.3 ±1.1	28.2 ±1.1
	7	29.2 ±1.1	28.9 ±1.0	31.5 ±1.2
	14	29.5 ±1.2	29.0 ±1.0	33.2 ±1.2
	21	29.8 ±1.1	22.5 ±0.9	34.0 ±1.1
	28	30.0 ±1.0	22.0 ±1.0	34.5 ±1.2
Komplement tizimi faolligi-CH₅₀ (birliklar)	1	104 ±3.5	103 ±3.2	105 ±3.1
	7	106 ±3.4	105 ±3.3	112 ±3.2
	14	108 ±3.3	106 ±3.0	118 ±3.5
	21	109 ±3.2	88 ±2.9	121 ±3.3
	28	110 ±3.1	86 ±3.0	122 ±3.2

Immun tizimining nomaxsus ko‘rsatkichi hisoblangan lizotsim faolligi, dastlab barcha guruhlarda 28–29% oraliqdagi muvozanatli fiziologik foni ko‘rsatib, 7–14-kunlarda makslak probiotigi berilgan guruhda bu ko‘rsatkich 33% gacha ko‘tarildi, sog‘lom va zararlanishi kutilayotgan nazorat guruhlarida esa deyarli o‘zgarish kuzatilmadi. 21–28-kunlariga kelib zararlangan nazorat guruhida lizotsim faolligi 22% gacha pasayib probiotik berilgan guruhda esa ko‘rsatkich 34–35% gacha oshdi, sog‘lom nazoratda (30%) natijani ko‘rsatdi. Komplement tizimi faolligi (CH₅₀, birliklar) dastlab 103–108 birlik darajasida qayd etilib, 7–14-kunlarda probiotik berilgan tajriba guruhida sog‘lom nazoratdan yuqori bo‘lib, 118 birlikni tashkil etdi. Zararlanishi kutilayotgan nazorat guruhida esa fiziologik me‘yor (106 birlik) ko‘rsatkichni qayd etdi. 21–28-kunlarda esa zararlangan nazorat guruhida CH₅₀ darajasi 85–86 birlikka tushib ketdi, probiotik berilgan guruhda esa izchil ko‘tarilib, 121–122 birlikni tashkil etdi.

Davolash maqsadida o'tkazilgan tadqiqotlarda nomaxsus immun ko'rsatkichlar tajribaning 14-kunidan boshlab zararlash fonida baholandi. Fagotsitoz indeksi dastlab barcha guruhlarda 35–36% darajasida bo'lib, farq deyarli sezilmadi. Tajribaning 21–28-kunlariga kelib esa probiotik berilgan 1-tajriba guruhi (Maxlac) va 4-tajriba guruhi (kombinatsiyalashgan) qo'zilarida ushbu ko'rsatkichda keskin ko'tarilish kuzatildi (49–50%). 2-tajriba guruhi (Innoprovet)da ham sezilarli tiklanish qayd etilib (41–43%), 3-tajriba antibiotik qo'llanilgan guruhda esa qisman tiklanish 40–42% darajasida bo'lib qoldi. Zararlangan nazorat guruhida esa past ko'rsatkich (32–33%) saqlanib qoldi. Bakteritsid faollik dastlab barcha guruhlarda 45–46% atrofida bo'lsa, 21–28-kunlarda 1-tajriba guruhi va 4-tajriba guruhi qo'zilarida yuqori natijalar qayd etilib, mos ravishda 61–62% va 63–64% gacha ko'tarildi. 2-tajriba guruhida bakteritsid faollik 54–56% darajasida tiklandi, 3-tajriba guruhida esa 52–54% da cheklangan darajada saqlanib qoldi. Zararlangan nazorat guruhida esa bu ko'rsatkich 41–42% gacha tushib ketdi. Lizotsim faollik tajribaning 14-kunda qo'zg'atuvchi bilan zarlantirmasdan oldin barcha guruhlarda 28–29% oralig'ida edi. Zararlashdan keyingi 15–16-kunlarda nazorat guruhida ko'rsatkich 21% gacha pasaydi. Antibiotik guruhida qisman tiklanish bo'lib (27–30%), Makslak probiotigi berilgan 1-tajriba guruhida ushbu ko'rsatkich 30–31% gacha ko'tarildi, antibiotik va probiotik kombinatsiyalashgan guruhda esa eng yuqori natija (33%) qayd etildi. 21–28-kunlarda Makslak probiotigi berilgan guruhda lizotsim 32–34% darajasiga, Innoprovet probiotigi berilgan guruhda 29,5-30 foizga etdi, antibiotik va probiotik kombinatsiyalashgan guruhda esa 33–35% atrofida bo'ldi. Antibiotik guruhida esa 28–29% da cheklangan tiklanish kuzatildi, nazorat guruhida esa ko'rsatkich 21–22% atrofida saqlanib qoldi.

